fikrlarini tinglash va mustaqil hamda tanqidiy fikrlash, muqobil takliflarni ilgari surish, fikr-mulohazalarini erkin bayon qilish, o'z nuqtai nazarlarini himoya qilish, muammoning yechimini topishga intilish, murakkab vaziyatlardan chiqa olish kabi sifatlarni shakllantirishga muvaffaq bo'lish mumkin. Eng muhimi, zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llash orqali aniq ta'limiy maqsadga erishish yo'lida o'zaro hamkorlikka asoslangan harakatlarni tashkil etish, yo'naltirish, boshqarish, nazorat va tahlil qilish orqali xolis baholash imkoniyatini qo'lga kiritiladi.

References:

- 1.O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning O'zbekiston yoshlari kunida so'zlagan nutqi.Toshkent 2021 30-iyun
- 2.“Yangi O`zbekiston demokratik o`zgarishlar,keng imkoniyatlar va amaliy ishlar mamlakatiga aylanmoqda”Sh.Mirziyoyev –Toshkent:O`qituvchi 2021.
- 3.Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz”. Sh.Mirziyoyev-Toshkent 2017
4. Юнусов, К. З., Шумкарова, Ш. П., Ядгарова, Х. И., & Арзикулова, Г. С. (2016). Изменение качественных показателей тканей для постельного белья с различными поверхностными плотностями. *Молодой ученый*, (1), 243-249.
5. Yorbekov A. D. ZAMONAVIY TA'LIMDA TARBIYA MASALALARI //INTERNATIONAL CONFERENCES ON LEARNING AND TEACHING. – 2022. – Т. 1. – №. 1. – С. 210-212.
6. Shumkarova, S., Rajapova, M., Yodgorova, H., & Ashurov, K. (2022, June). Effect of secondary material resources on physical and mechanical properties of floor fabrics. In AIP Conference Proceedings (Vol. 2432, No. 1, p. 040024). AIP Publishing LLC.
- 7.Yangi o'zbekistonda raqamli ta'lim tizimi. Xalqaro onlayn ilmiy-amaliy konferensiya. 2022

ҚАРАҚАЛПАҚСТАН РЕСПУБЛИКАСЫ ИШКИ ИСЛЕР УЙЫМЛАРЫНЫҢ КЕҢЕС ДӘҰИРИНДЕГИ РОЛИ

Кеңесбаев О.Ж.

Бердақ атындағы Қарақалпақ Мәмлекетлик Университети, Өзбекстан тарийхы қәнийгелиги екинши басқыш магистранты, Нөкис қаласы.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7654952>

РЕЗЮМЕ: Бул мақалада Кеңес хәкимияты дәуиринде Қарақалпақстан Республикасында тәртипти қорғау ұйымларының роли хаққында сөз барады.

Таяныш сөзлер. Кеңес, хәкимият, партия, комсомол, жәмийетлик тәртип, қыстаулы жағдай.

Қарақалпақстан территориясында ишки ислер хәм жәмийетлик тәртипти қорғау ұйымларының шөлкемлестирилиуи 1920-шы жыллардағы Әмиўдәрия ўалаятындағы кескин аўыр болған сиясий хәм жәмийетлик жағдай тийкар болады. Әмиўдария областьлық партия комитети 1923/1924 жылғы Хийуа уақыяларынан болған сабақты есапқа алып, хәр түрли қуралланған жынайы топарлардан, соныңдай-ақ жәмийетлик тәртипти қорғау мақсетинде 1924-жылы 2-июньде жергиликли жаслардан айрықша тайынланған арнаўлы әскерлер топарын - ЧОН (Чрезвычайный отряд особого назначения) шөлкемлестириуи хаққында қарар қабыл етти. Усы топар ағзалары арасында сиясий үгит-нәсият жұмысларын алып баруи хәм оның әскерий интизам және ишки тәртипти беккемлеу мақсетинде совет-партия ұйымлары жанында жергиликли Жаслар ұйымы, Областлық әскерий комиссариат ўәкиллеринен ибарат Кеңес шөлкемлестирилип, усы Арнаўлы әскерий топардың ис-хәрекетин қадағалап, бағдарлап отыруи ушын Областлық партия комитетинде ЧОН инспекторы деп аталатуғын лаўазым тайынланды. Областың барлық партия хәм комсомол ячейкалары жанында коммунистлер менен комсомолларды әскерий есапқа алып отыратуғын старосталар белгиленди. Олар ЧОН командирлеринен тиккелей көрсетпелер алып отырды. Әскерий топардың жыйынлары партия хәм комсомол ячейкалары арқалы өткерилип турды [1:36].

1924-1925-жыллары Төрткүл, Хожели, Қоңырат, Шымбай округлеринде ЧОН әскерий топарына кирмеген бирде комсомол қалмады деп айтыу толық мүмкин еди. Мәселен, ЧОН әскерий топары Шымбайда Загдайдың басшылығында 1925-жылы 11-апрельде шөлкемлестирилди. Оған Шымбай жаслары белсене қатнасты.

ЧОН Кеңес хәкимиятын хәр қыйлы қәуиплерден қорғауда әскерий бөлимлерге жәрдем беретуғын хәм оларға кадрлар жетистирип бериуде үлкен әхмийетке ийе болған мектепке айланды. Бул махәлде Жоқары ұйымларға жиберилетуғын хәм Жоқары ұйымлардан төменги ұйымларға келетуғын ең әхмийетли хужжетлер усы ЧОН арқалы жүргизилди. Ең әхмийетли орынларды банк, почта, телеграф, қоймаханаларды ЧОН қараўыллайтуғын еди.

1925-жыл 12-19-февральда Төрткүлде Қарақалпақ автономиялы ўалаяты дийқан, батрақ хәм қызыл армияшылар депутатлары Кеңесиниң 1-шөлкемлестириуи съезди болып өтти. Съезд дүньяға «Қарақалпақ автономиялы ўалаятының дүзилиуи хаққында Декларация» жәриялап, автономиялы ўалаят түринде миллий мәмлекетшилигиниң

қайта тикленгенлигин хәм оның Қазақстан АССР-ының құрамына киргенлигин нызымлы түрде тастыйықлады.

1925-жыл 15-16-апрельде Қызыл Ордада болып өткен Кеңеслердің V Пүткил Қазақстан съезди Қарақалпақстан автономиялы областын Қазақстан АССР-ының құрамына қабыл етиў ҳаққындағы қарар қабыл етти. Бул қарар 1925-жыл 11-майдағы Кеңеслердің XII Пүткил Россиялық съездинде биротола тастыйықланды [3:58].

Бул өзгерислер Қарақалпақстанда ишки ислер уйымларының қайта шөлкемлестирилиўине тийкар болып, кейин ала Арнаўлы әскерий топарлар тийкарында Қарақалпақстанда милиция уйымлары дүзилди. Сол дәўирдеги Қарақалпақ автоном ұалаятының пуқараларын, оның хәр түрли қәўиплерден қорғаў, жынайаятшылықтың алдын алыў хәм жуўапқа тартыў бойыншца жумыслары айрықша болып есапланады. Олардың шеберлиги артты, илимий-техникалық базасы күшейди. Усылардың нәтийжесинде буныңдай қәўипли жынаятшылар менен алып барылған жумыслар жүдә жақсы нәтийжелер берди [4:95].

References:

1. Қарақалпақстан комсомолы тарийхының айрым мәселелери. - Нөкис, 1958. 168-бет.
2. Бул да сол жерде, 38-бет.
3. Таўмуратов Н. Қарақалпақстанда тәртип қорғаў уйымларының тарийхы (1973-2010 жыллар) – Нөкис, 2011. 200-бет.
4. Таўмуратов Н, Қарақалпақстан милициясының тарийхынан. 3-китап. – Нөкис, 1997. 188-бет.

AXBOROT TEXNOLOGIYALARINING O'ZBEKISTONDA RIVOJLANISHI.

To'ychiyeva Asilabonu

Termiz davlat pedagogika instituti talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7655602>

Annotatsiya: Bugungi kunda butun davlatning rivojlanishi IT sohasining rivojlanishiga bevosita bog'liq, shuning uchun dunyoning ko'pgina mamlakatlari birinchi navbatda barcha e'tiborini butun IT-ekotizimni yaxshilash uchun qulay shart-sharoitlarni yaratishga qaratmoqdalar. Ushbu maqolada axborot texnologiyalarining O'zbekistonda reivojlanishi haqida ma'lumot berilgan.

Kalit so'zlar: Axborot texnologiyalar, global axborot tizimi, sayt, dastur, rivojlanish.

Hozirgi vaqtda yangi texnologiyalarning axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) taraqqiyoti bilan birgalikda rivoji masofa va vaqt oralig'iga qaramay axborot, pul va boshqa resurslarni tez yetkazib berish, almashish uchun imkoniyat yaratmoqda. Axborotlashgan iqtisodiyotga o'tish bilan bog'liq sodir bo'layotgan chuqur va tub o'zgarishlar bir qator muammo va ziddiyatlarga olib kelmoqda. Bunday muammolarga jamiyat faoliyatidagi turli sohalarga oid globallashtirish va axborotlashtirish tufayli paydo bo'lgan hamda har tomonlama o'rganish va yechimi kompleks yondashuvni talab etuvchi iqtisodiy hayotning o'zgaruvchanligi va beqarorligini kiritish mumkin bo'ladi. Bulardan ta'lim, AKT, ilmiy va innovatsion faoliyat turlarining jamiyat, davlat va iqtisodiyotga bo'lgan ta'sirining kuchayishi hamda ular faoliyat yuritishining sifat jihatdan yangi xususiyatlarga ega bo'lishini alohida ta'kidlab o'tish mumkin. Shu sababli zamonaviy iqtisodiyot nazariyasi jamiyat hayotidagi ziddiyatlarga qanday ta'rif berishi hamda uning nazariy jihatdan mazmun-mohiyati jahon iqtisodiyotining hozirgi zamon bosqichida o'z aksini qanday topayotganligi va axborotlashgan iqtisodiyotning o'ziga xos xususiyatini ko'rsatib bermoq hozirgi kunda o'ta muhim masalalardan biridir.

Axborot sohasi qonunchiligining asosini Konstitutsiyamiz, "Axborotlashtirish to'g'risida"gi, "Elektron hukumat to'g'risida"gi, "Elektron tijorat to'g'risida"gi, "Elektron hujjat aylanishi to'g'risida"gi va boshqa qator qonunlar tashkil etadi. Mavjud me'yoriy-huquqiy hujjatlar mahalliy korxonalarining raqobatbardoshligi va samaradorligini oshirishga xizmat qilmoqda.

Axborot sohasining me'yoriy-huquqiy bazasini muntazam isloh qilish tufayli milliy axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalari sohasi barqaror yuksalib bormoqda. Soha korxonalari tomonidan ko'rsatilgan xizmatlar hajmi oxirgi yilda 11 foiz, jumladan, aholiga ko'rsatilgan xizmatlar hajmi 12 foizga o'sdi. Xalqaro axborot tarmoqlaridan foydalanish tezligi yil boshiga nisbatan 32 foizga oshdi.

MOBIL aloqa bugungi kunda mobil aloqa abonentlari soni 25 million nafardan ortdi. Yuzaga kelgan raqobat muhiti internet xizmatlarini taqdim etadigan operator va provayderlar, shuningdek, ushbu tarmoqdan umumiy foydalanish punktlari sonini ko'paytirish imkonini berdi.

GLOBAL AXBOROT TIZIMI. Global axborot tizimidan foydalanuvchilar soni hozir 7,7 million kishidan oshdi, ularning 4,27 million nafari internetdan mobil aloqa orqali foydalanmoqda. Elektron raqamli imzoni qo'llash imkonini beradigan me'yoriy-huquqiy baza va ochiq elektron kalitlar infratuzilmasi yaratildi.

O'zbekiston boshqa davlatlar bilan munosabatlarini va do'stona aloqalarini o'rnatishga kirishdi. Mustaqillikdan so'ng respublikamizda axborot texnologiyalariga katta e'tibor berildi. Jahoning ko'plab mamalatlari zamonaviy kompyuterlarga va ularni yoshlarga bevosita o'rgatishga kirishdi. Yangi axborot texnologiyalari rivojlanishiga ko'plab mamlakatlar katta e'tibor berildi va har xil festival, musobaqa, tanlovlar qilindi. Shu jumladan, mamlakatimizda ham bunday ishlarga befarq qaralmayapti. Bunga misol, 2000 yil mart oyida vatanimizda birinchi marta Internet festivali bo'lib o'tdi. Festival 15 turdagi yo'nalishlardan iborat bo'ldi. Shular qatori, iqtisodiy va ijtimoiy sohalar haqida yo'nalishlar mavjud. Bu diyorumizda axborot texnologiyalariga talab va e'tibor kuchli ekanligini ko'rsatadi. O'zbekistonda axborot texnologiyalarining rivojlanishtirish ishlari olib borilmoqda. Eng katta yutuq bu O'zbekistonda milliy kompyuter tarmoqlarining shakllanishidir va u orqali axborot almashinish mumkin. Mamlakatimizda O'rta Osiyoda birinchilardan bo'lib, elektron hisoblash mashinasi ishga tushirilgan. 1956 yilda O'zFA matematika instituti qoshida hisoblash texnikasi bo'limi ochildi. Bu O'rta Osiyo respublikalari ichida birinchi bunday bo'lim ochilishi edi. 1958 yilga kelib esa dekabrning o'ttizinchi kuni O'rta Osiyoda birinchi bo'lib "Ural" elektron hisoblash mashinasi tashkil etildi. Bunday rivojlanish va e'tibor o'z kuchini ko'rsatdi. Toshkent shahri elektron-hisoblash mashinalari sohasidagi markazlarning biriga aylandi. Bunday katta yutuqlarni yanada mustahkamlash maqsadida 1962 yil Toshkent shahrida M20 rusumli, yarim o'tkazgichli M220 rusumli, "Minsk 22" , "Ural 2" , "BCM6-1" , "BCM6-2" rusumli elektron-hisoblash mashinalari ishga tushirildi. Uskunalarining ishga tushirilishi yanada yangi izlanishlar va rivojlantirish ishlari yanada avj olib ketdi. Bunday rivojlantirishlar yangi ehtiyojlarni sezdi va 1966-yilda bo'lim nagizida yangi "Kibernetika" ilmiy ishlab chiqarish birlashmasi ochildi. O'zbekistanimiz mustaqil bo'lgandan so'ng ham axborot texnologiyalariga katta e'tibor berildi va bu bo'lim, birlashmalar yanada rivojlantirildi. 2001 yil "Kibernetika" ilmiy ishlab chiqarish birlashmasida yangi axborot texnologiyalari markazi barpo etildi. Mustaqil O'zbekistonimizda kompyuterlashtirishni rivojlantirish, zamonaviy kompyuterlarni qo'llash va ularni samarali, sifatli ishlatish, kompyuter bozorini kengaytirish, shu va boshqa yo'nalishlar bo'yicha tadbirlar o'tkazildi va yanada yangi yo'nalishlari rejalashtirilmoqda.

"Informatika" fanlar ichida eng yoshi hisoblanadi. Uni yanada rivojlantirish, kompyuter dasturlari bilan tanishish, o'sib kelayotgan yosh avlodni elektron-hisolash mashinalari bilan tanishtirish, ularni o'rgatishni yangi bosqichlarini ishlab chiqish mamlakatimizning dolzarb va asosiy mavzusiga aylangan. Maktab, kollej, litsey, institut, universitetlarni talabga javob beradigan kompyuterlar bilan ta'minlash, ularga eng zamonaviy kompyuterlarni va ular bilan ishlash o'rgatish, O'zbekistonni har jabhada jahonga ko'rsatish asosiy vazifadir. Yoshlarni bo'sh vaqtini mazmunli o'tkazish maqsadida "Kamolot" ko'p va ho'p ishlar qilmoqda. Bizning shaharda "Kamolot"ning bo'limi mavjud. "Kamolot" yoshlarni bo'sh vaqtini qiziqarli o'tkazish maqsadida, bo'limga "Ingliz tili" kursi va "Informatika" kursi tashkil etdi. U yerga "Kamolot"

tomonidan zamonaviy kompyuterlar berildi. Bu O'zbekistonda axborot texnologiyalarining qanday rivojlanayotganligi bir kichik va oddiy misoldir. Jahonning ko'p davlatlari O'zbekistonimizga boshqacha ko'z bilan qarashmoqda. Yosh avlodga ko'rsatilayotgan va berilayotgan imkoniyatlar boshqa davlatlarni xavasini keltirmoqda. Har bir davlat rivojlanish yo'lida ma'lum qiyinchiliklarga uchraydi. O'zbekiston ham bundan mustasno emas. Yangi iqtisodiy munosabatlarga o'tish davrida o'zining texnologik imkoniyatlarini rivojlantirish faqat zamonaviy axborot texnologiyalarini qo'llash orqali amalga oshirilishini talab etiladi. O'zbekiston ko'p davlatlar kabi axborot texnologiyalarini ishlab chiqishda muammolarga duch kelmoqda. Bu borada, Yevropa, Yaponiya va AQSH davlatlari yetakchilik qiladi. Mamlakatimizning axborot texnologiyalaridagi eng katta muammosi, bu kompyuterlarni ishlab chiqarish salohiyatidir. Bizda ham bosqichma-bosqich shu muammolarni yechishga astoydil harakat qilinmoqda. Bizning olimlar bu muammolarni yechishga harakat qilmoqdalar, lekin baribir bu jabhalarda kemtik borga o'xshaydi. Baribir O'zbekistonimiz bu muammolarni asta-sekinlik bilan hal qiladi. Har bir davlatda ham muammolar mavjud faqat o'z milliyligini, aqlini ishlatgan davlatlar muammolarni hal qiladi. O'zbekistonda mustaqil bo'lgandan so'ng, asta-sekin rivojlanish yo'lga o'tdi. Respublikamizda chet el firmalari ish boshladi. Bu firmalar boshida Amerikaning COMPUTER-LAND firmasi turadi. Bu firma sehrli diyorumizda 1991-yildan buyon faoliyat ko'rsatadi. Chet el firmalari nafaqat kompyuterlarni sotish, balki bizning mutaxassislar bilan birga ilmiy-amaliy loyihalarni ishlab chiqishi zarurdir. Mamlakatimizda ishlab kelayotgan kompyuterlar soni 100 mingdan oshib ketdi. Ular, asosan, IBM, COMPAQ, HEWLETT, PACCARD, EPSON, DAEWOO, SONY firmalarining mahsulotlari hisoblanadi. Poytaxtimiz Toshkentda COMPUTERLAND/MBL firmasi filiali joylashgan. Bu yerda yosh avlodlar bilim olishlari mumkin. Vatanimizda chet el firmalarining kengaytirishda "O'zekspomarkaz"ning roli katta. Har yili markazda kompyuter, axborot texnologiyalari, biznes sohasida ko'plab anjuman, seminar, festivallar bo'lib o'tadi. Bu yerda yoshlar qatnashib, diyorumizda axborot texnologiyalarining rivojlanishiga katta hissa qo'shadilar. Hozirgi kunda axborot texnologiyalarining rivojlanishiga katta hissa qo'shayotgan insonlardan biri bu Nigmatov Hikmatillo hisoblanadi. Bu inson yoshlarni o'qitishda, yangi g'oyalarni ilgari surishda va ularni amalga oshirishda katta xizmat ko'rsatgan. Uning taklifi bilan Toshkentda axborot texnologiyalari tarmog'i yaratildi. Hozirgi XXI asrdagi eng muhim va qulay bu Internet hisoblanadi. Axborot texnologiyalari haqida ham mamlakatimizda internet provayderlar mavjud. [url=http://www.ComSost.uz]www.ComSost.uz[/url] saytida axborot texnologiyalari haqida eng so'nggi ma'lumotlar mavjud. Saytga deyarli har kuni yangi ma'lumotlar kiritiladi.

References:

1. Informatika va axborot texnologiyalari. Akademik S.S.G'ulomov umumiy tahriri ostida. Darslik. T.: "Iqtisodiyot", -2009.
2. Hoshimov O.O., Tulyaganov M.M. Kompyuterli va raqamli texnologiyalar. T.: "Yangi asr avlodi", 2009. 102 b.*

NORMUROD NORQOBILOVNING IJODIGA BIR NAZAR

Ahmedova Sarvinoz

Qoraqalpoq davlat universiteti

O'zbek filologiya fakulteti

2-kurs talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7656459>

Annotatsiya: Ushbu maqolada hozirgi o'zbek hikoyachiligining iste'dodli vakili Normurod Norqobilov ijodining o'ziga xosligi, mavzu xilma-xilligi, ichki kechinma va qahramon ruhiyati "Yangi ertak " hikoyasi tahlili misolida ochib berilgan.

Kalit so'zlar: badiiy adabiyot, ertak, qahramon ruhiyati, muallif va personaj nutqi, uslub.

Bugungi ko'zga ko'ringan o'zbek nasrining yorqin vakillaridan biri Normurod Norqobilov ham o'z uslubiga ega yozuvchidir. Davrning muhim qirralarini o'z asarlarida ifoda etib qolmasdan, obraz va xarakter yaratishdagi an'anaviy va novatorona yondashuvi adib mahoratini belgilaydi.

Ana shu an'nnaviylik va novatorona yondashuv uning quyida tahlil qilinuvchi "Yangi ertak " hikoyasida o'z aksini topgan. Buni oddiygina hikoya sarlavhasidan ham ko'rishimiz mumkin. Hikoya bir qarashda kitobxonni o'ziga jalb qiladi. "Qanday hikoya? " - deya qiziqish uyg'otadi. Ha mana shu yerda yozuvchining sarlavha qo'yish mahorati yaqqol ko'zga tashlanadi. Negaki, sarlavha kitobxonni birinchi navbatda o'ziga tortishi, jalb qila olishi kerak.

Hikoyani tahlil va talqin qilar ekanmiz, voqealar rivoji muallif tilidan hikoya qilinganligini ko'ramiz. Tahlil jarayonida avvalo, hikoya boshlanishidagi personaj nutqi e'tiborimizni tortdi.

"Bir bor ekan, bir yo'q ekan..."

Uf-f... buncha qiyin ish ekan bu!.. ". [1]

Ha mana shu joyda xalq og'zaki ijodi namunasi bo'lmish " Ertak" janriga ozroq to'xtalishni maqul deb bildim.

Ertak — xalq og'zaki poetik ijodining asosiy janrlaridan biri; to'qima va uydirmaga asoslangan sehrlil sarguzasht va maishiy xarakterdagi epik badiiy asar. [2]

Shuningdek, ertaklarning o'ziga xos boshlanmasi va tugallanmasi bo'ladi. Yuqoridagi personaj nutqida ham odatiy ertak boshlanmasidan boshlangan.

Bilamizki, qahramon ruhiyatini ochib berishda personaj va muallif nutqining o'rni katta. " Uf-f... buncha qiyin ish ekan bu!.." deyilishning o'zida bosh qahramonimiz Oydinning ertak to'qiy olmay, juda xunob bo'lganini ko'rishimiz mumkin. Va shuningdek, muallif qahramonimizning holatini quydagicha ifodalaydi.

"Ertak to'qish va uni qog'ozga tushirish bu qadar og'ir, bu qadar mushkul yumush ekanligini xayoliga keltirmagan Oydin qizaloq, mana, necha kundirki, "bir bor ekan, bir yo'q ekan"dan nariga o'tolmay juda xunob edi. Boshda yozilishi o'ta jo'ndek tuyulgan ertak qizchanning ongu shuurida allaqachon pishib yetilgan esa-da, biroq qo'lga qalam oldi degancha, so'z degani sira tutqich bermas, misli tariqday sochilib ketmoqda edi".[1]

Qahramonimiz ertagini tezroq tugatishi kerak. Negaki, uni o'gay onasi - Sadoqatning tug'ulgan kunniga tayyor qilishi kerak edi. O'gay ona deyilganda ko'pchilik nazariga salbiy qahramon gavdalanadi. To'g'ri, hech bir inson o'z onasidek mehr-muhabbat berib, o'rnini bosolmaydi. Ammo, Sadoqat Oydinga ona o'z qiziga beradigan barcha narsalarni berdi. Ha, shuning uchun ham, Oydin unga javoban uning tug'ulgan kunniga sovg'a qilib ertak yozmoqchi va kechalari uxlayotgan opasiga havasi kelib uxlagisi kelsa-da, u bu ishiga jon-jahti bilan kirishgan. Qahramonimizning hissiyotlari quidagi muallif nutqida yaqol namoyon bo'ladi.

"... oxirida, xona o'rtasiga solingan qo'sh o'rinning birida bahuzur uyquni urayotgan o'gay opasi – Xadichaga havaslanib boqadi va ich-ichidan, qo'lidagi ruchkasini nimqorong'i kunjakka uloqtirib, opasi qatorida ko'rpa tagiga sho'ng'ish istagini tuyadi. Biroq qanday bo'lmasin ertagini tezroq yakunlashi lozimligi tag'in esiga tushib, bu fikridan qaytadi. Axir o'gay onasi – Sadoqatning tug'ilgan kuni juda yaqin qolgan, agar ertagini tezroq tugallamasa, boldan totli, shakardan shirin orzusi – bayram dasturxonida ustida hammadan bekitiqcha yozgan ertagini o'qib, uydagilarni, asosan, o'gay onasini quvontirish niyati butunlay puchga chiqadi-da".[1]

Ha Oydin hali yosh, beg'ubor qizaloq, " U zimdan qovoqlariga to'r tashlay boshlagan uyquni quvlab, stol chetida yotgan qalin kitobni qayta qo'liga oladi, o'zicha tag'in ertaklarning yozilish sir-asrorlarini o'rganmoqchi bo'ladi".

Gegel aytganidek, " hayotni badiiy idrok etishda voqealarning mag'zi nasriy asarlar asosini tashkil qiladi. Bunda odamlar ruhiyati bilan jamiyat psixologiyasini vobasta, anglash, ko'rsatish va ifodalash adib badiiyatini belgilab beradi". [3.153]

Haqiqatdan ham nasriy asarlarda qahramonlar ruhiyatini ifodalash muallifning mahoratiga bog'liq.

"Qizcha o'ychan nigohini oldidagi daftar sahifasidan uzib, avvaliga, xuddi najot qidirganday, marhuma onasining devordagi suratiga tikiladi. Bir muddatdan so'ng chuqur xo'rsinib, tevarakka ma'yus ko'z yugurtiradi"

Yuqorida ta'kidlaganidek, qanchalik yaxshi bo'lmasin, hech bir inson o'z onangdek bo'la olmaydi. Ushbu muallif nutqida ham qahramonimiz onasini qumsab, sog'inganini ko'ramiz. Albatta, har bir farzand uchun hayotda ota-onaning o'rni beqiyos. Shuning uchundir balki Oydingning dadasi qiziga ona kerakligi payqab uylangandir. Oydin hali voyaga yetmay turib dadasini turmush qurgani ham yaxshi negaki, yoshlik paytda o'rganish, moslahish osonroq kechadi.

Shuningdek, badiiy adabiyot kitobxonda fikrlash qobilyatini ham shakllantiradi. Va ba'zi badiiy asarlarda fikrlar ramziy va shartli holatda beriladi. Bu esa o'quvchini chuqurroq o'ylashga majbur qiladi. Normurod Norqobilov ham ushbu asarida shu kabi uslubdan foydalanganligini ko'rishimiz mumkin.

"Shu o'yda kitobni hushsizlik bilan bir-bir varaqlarkan, ko'zi bot "Zumrad va Qimmat" ertagiga tushgach, qoshlari norozi chimirilib, uni shartta yopadi-da, zarda ila nari surib qo'yadi. Boisi, qizcha yaratajak ertak mazmuni bu ertakka tamomila zid bo'lib, uni to'la inkor etardi. Vaholanki, yaqin-yaqingacha, ya'ni esini tanib, kitob hamda ertaklar dunyosiga oshno tutinganidan beri ayni shu ertak uning eng sevimli, eng qadrliligi ertaklaridan biri edi.

Endi esa...". [1]

Ko'ryapmizki, muallif nutqining oxirida ko'p nuqta qo'llangan. Va bu ko'p nuqta nutqning hali tugallanmaganligini bildirib, kitobxonni fikrlashga undamoqda.

Badiiy adabiyot nafaqat estetik fikrlash qobilyatini kengaytiradi balki, inson hayotiga shunday ta'siri kuchliki, buni sezmay qolasan kishi.

Qahramonimiz Oydinning hayotida ham shunday bo'ldi

"...Qizcha "Zumrad va Qimmat" ertagi tufayli chekkan ruhiy iztiroblari – Zumradning taqdiri endi o'z boshiga tushajagini o'ylab, qo'rquv va tahlika og'ushida kechgan kunlari va tunlarini hali unutmagandi.

Esida, o'shanda o'gay onasining hovliga kirib kelish onlarini dahshat bilan kutgan. Darvoza ortida mashina ovozi tinib, eshiklarning taraqqituruq qilib ochilib-yopilishi qulog'iga chalinishi bilan yelday uchib borib, somonxonaga bekingan, qo'rquvdan yaproqday titrab, eshik tirqishidan darvozaga ko'z tikkan. Ana, hozir o'gay onasi aynan Qimmatga o'xshash labi do'rdoq, sochlari patila, haddan ziyod injiq va o'jar qizini boshlab darvozadan kirib keladi, shunchaki emas, og'zidan o't purkab kirib keladi. Va hovliga qadam qo'yishi hamonoq tevarakka alang-jalang qaranib, o'gay qiz – Oydinni qidirishga tushadi, so'ng uni bo'g'zigacha yumushga ko'mib tashlaydi. Mabodo bo'yin tovlar bo'lsa, uradi, so'kadi va oqibat, kunlardan birida, "o'rmonga adashtirib kel buni", deya otasining qo'lga tutqazadi. Otasi o'gay onaga lom-mim demoqqa jur'ati yetmay, suyuqli qizini o'rmonda adashtirib keladi..."[1]

"Zumrad va Qimmat" ertagni o'qigan Oydin Zumradni o'rnida o'zini his qiladi, ya'niki, bu hisiyot o'gay onasi - Sadoqat yangi kelgan paytlarda bo'ladi. Negaki, ko'pchilik o'gay onalarni yomon deb biladi. Shuning uchun ham boshida yangi oyisini yoqtirmaydi.

Aslida qizchanning ko'ngliga "o'gay ona" qo'rquvini solgan uning Xolbuvi xolasi bo'ladi.

"sen yetimchaga kun berishmaydi ular! Qizi dodingni beradi, enasi esa, og'zidan o't purkab, sen yetimchani tiriklayin qovurib yeydi! Ana shuni aytadilar-da, enali yetim – gul yetim, otali yetim – sho'r yetim deb! Sen manglayi qora, sho'r yetimsan-da!" [1]

"Sho'rlik yetimcha", deya boshini silagan, o'gay ena boshingga it kunini soladi endi, deya bag'riga bosgan. "Qo'rqma, bu yoqda men, itga itday tashlanadigan xolang bor", deya yupanch bergan...

Bunday gaplarni eshitgan Oydin, Zumradni o'ziga taqdirdosh bilib, ertakka takror ko'z tashlaydi. Sho'rlik Zumradning qora qismatiga achinishdan ham ko'ra, endilikda u tortgan barcha azob-u uqubatlarni hademay o'zining chekiga tushishini o'ylab, pinhona yig'lab, zimdan aziyat chekadi. Otasi fikridan qaytib qolar degan umidda, uy ishlarini hamma narsalarni chinni-chiroy qiladi, qo'lidan kelganicha, bekam-u ko'st ado etishga tirishadi. Uydagi saranjom-sarishtalikni ko'rib, otasi uni maqtaydi, erkalaydi, ammo qizcha kutgandek, fikridan qaytmaydi.

Xulas, hikoya so'ngida Oydinning Xolbuvi holasi aytgandek ham o'zi tasavvur qilgandek ham bo'lmaydi. Sadoqat yangi kelgan kunningi muallif shunday tariflaydi.

"...hovli to'ridagi uy eshigiga yetib qolgan o'gay onaga ro'paro' qildi:

– Tanishing, qizingiz...

Qizcha o'gay onaning kulib turgan ko'zlariga, xiyolgina qizil surilgan lablariga qo'rquv to'la ko'zlarini tikarkan, hozir bu pushtirang lablar orasidan o't sachraydi, deb o'yladi. Yo'q, qimirlagan lablar orasidan o't emas, quyidagi mayin xitob sirg'alib chiqdi:

– Voy, mening bolajonim!..

Qizcha, quloqlariga ishonmay, hang-mang turib qolarkan, zumda o'zini uning quchog'ida ko'rdi. U hali o'ziga butunlay yot bo'lgan bu quchoqda, odatda, xolasining hissiz bag'rida tuyadigan ter, chang va tutun isini emas, dimoqqa xush yoquvchi mayin atir bo'yini, chinakam mehr taftini his etdi" [1]

Shunday qilib, Oydin Sadoqat timsolida o'z onasini ko'rdi. Oydin uni shunchalar yoqtirib qoldiki, shuning uchun ham kechani-kecha demay ertagini tezroq tugatib, onasiga surpriz qilmoqchi edi.

Maqolam so'z boshida hikoya sarlavhasini tahlil qilmoqchi edim ammo buni xulosaga yaqin yozay dedim, negaki, hikoya matnini tahlil qilib bo'lgach uning sarlavhasini tahlil qilish va tushunish osonroq.

Demak, Nima uchun muallif hikoyaga "Yangi ertak" deb nom beradi ?

Bu yerda hikoya asosini xalq og'zaki ijodi namunasi bo'lmish "Zumrad va Qimmat" ertagi tashkil etgan. Ertak qancha zamonlardan beri mavjud. Bu ertakni yoshligida o'qimagan, bilmagan kishini o'zi yoq. Shunday ekan, uning voqealar rivojini hamma biladi.

Endi yuqoridagi hikoyamiz bo'lsa, "Zumrad va Qimmat" ertakgiga o'xshash ammo uning oxiridagi noo'xshashlik hikoyani ertakdan tubdan o'gartirib yuboradi va yangi voqea-hodisa aralashadi. Shuning uchun muallifimiz bu hikoyasiga shunday nom qo'llangan.

References:

1. «Ijod olami» jurnali, 2017 yil, 1-son.
2. O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi 2000-2005.y
3. Гегел. Сочинения. М. Худож. лит. 1958. Т с .153.

HYPERBOLE AS A TOOL INDEPENDENT OF THE SPEAKER'S INTENTION

Raxmatullayeva Mukhlisa

The student of TerSU

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7657658>

Gibbs advocates a distinction between hyperbole and simple overstatement, by which a person unconsciously or unintentionally expresses a proposition that is stronger than the evidence warrants, whereas hyperbole is fundamentally intentional. Kreuz and Roberts also support this intentional component in defining hyperbole as “deliberate exaggeration”. The obvious difficulty here, as McCarthy and Carter note, is how to operationalize a speaker-internal notion of intention since the same proposition can be overstatement in one person's mouth and hyperbole in another's.

Among the five components of classical rhetoric, elocution, or the artistic use of language, gradually emerged as the major focus of interest, to such an extent as to virtually become a discipline of its own. Essentially, this single division of the classical rhetoric constitutes the field that today we call stylistics. The literary critic, as Turner has noted, has long been concerned with style and artistic creativity, so the debt of modern stylistics to rhetoric is evident and accepted as such. Dubois have even claimed that rhetoric is the knowledge of language procedures characteristic of literature. Thus, literature is always referred to as the paragon of standards, being poets, and in general literary writers, the best guarantors of exemplary usage. Tropes, in particular, have traditionally been treated as poetic tools. Since literary texts gradually became accepted as the most appropriate arena for speaking figuratively, it is not surprising that nowadays figuration is almost exclusively associated with literature.

The assumption that figurative language is exclusively ornamental has a long history in literary criticism. It has long been assumed that figurative language adds a rich aesthetic dimension to speaking and writing. Hence, literary writers employ figures of speech, such as hyperbole, to achieve certain aesthetic effects. It is commonly believed that figurative usage is not conceptually useful, but meant to “beautify prosaic ideas”. Thus, figures of speech are generally viewed as embellishments of ordinary literal language with little cognitive value of their own. In literary studies, the emphasis has been primarily laid on poetic or stylistic devices, as opposed to non-literal language per se. Associated with each literary genre is a distinctive set of aesthetic devices that enhance the aesthetic effect, including figurative language (e.g. irony, metaphor, hyperbole), shifts in perspective (e.g. points of view of narrator and characters, flashbacks) as well as phonological patterns (e.g. rhyme, assonance, alliteration). The type and density of these literary items predict the extent to which texts are regarded as literary. Within this framework, hyperbole primarily becomes a form of ornamentation, which lends beauty and interest to writing. Unfortunately, the idea that figurative language can be interesting or beautiful, as Pollio remark, has come perversely to suggest that such expression is only ornamental and that ornament is neither functional, nor useful. Thus, in literary criticism, hyperbole has been examined as a technique used to compel, ornament or interest, as well as a form of creativity, as the creative expression of some idea. Literary language forces tension on the distinction between form and content. Pollio express this idea in the following terms: For most speaking situations form remains submerged in content: we are usually aware of what is said rather than how it is said. Figurative expression calls attention to the medium itself and in this way forces the listener or reader to pay simultaneous attention to both medium and

message. In good figurative usage form and content fulfil a single intention; in lesser usage one or the other dominates. In all cases, however, it is the tendency of poetic language to demand its due that makes us stop and ponder not only on content, but style, as well as style and content.

References:

1. Mirxalalilova Sh. Zamonaviy tilshunoslikda "Giperbola" mublag'aning lingvistik maqomi. Academic Research in Educational Sciences. ISSN: 2181 - 1385. DOI: 10.24412/2181
2. Pollio, H. R. et al. Psychology and The Poetics of Growth: Figurative Language in Psychology, Psychotherapy and Education. New Jersey: Lawrence Erlbaum Associates, 1977.
3. Pollio, H. R. et al. "Figurative language and cognitive psychology". Language and Cognitive Processes 5, 1990. - 141-67p.
4. Qoraboyev J.B. Giperbolaning lingvistik maqomi va mubog' alashgan semantikalifrazeologik birliklar // Tilshunoslikdagi yangi yo'nalishlar va ularning muommolari. - Toshkent, 2015. 74 -75 b.

NUTQIY KOMPETENSIYANI MATN TURLARI ORQALI RIVOJLANTIRISHDA GRAMMATIK BILIMLARNING O'RNI

Nuriddinova O'lmasoy Vapayevna

Toshkent davlat pedagogika universiteti,
Umumiy tilshunoslik kafedrası o'qituvchisi
<https://doi.org/10.5281/zenodo.7662933>

Annotatsiya. Mazkur maqolada ona tili ta'limining o'ziga xos funksiyalari, kontekst, matn leksemasining konseptual asoslanishi, grammatik bilimlar, nutqiy birliklar, nutqiy ko'nikma, nutqiy kompetensiya elementlari, og'zaki va yozma nutq o'stirish, ijodiy va kreativ fikrlash hamda o'quvchilarning tafakkur qilish qobiliyatini takomillashtirish bo'yicha tilshunos, metodist olimlar hamda psixologlarning ilmiy qarashlari tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: ona tili ta'limi, grammatik bilim, leksik birliklar, mantiqiy mushohada, og'zaki va yozma savodxonlik, nutqiy ko'nikma, nutqiy kompetensiya, ta'limiy o'quv topshiriqlari, ilg'or texnologiyalar, kreativ yondashuv, ijodiy tafakkur, tasviriy ko'rgazmalar, matn turlari ustida ishlash.

Ma'lumki, ona tili o'qitish jarayonida o'qituvchining oldiga qo'yilgan vazfalardan biri davlat ta'lim stardartida belgilangan talablar asosida lingvistik va nutqiy kompetensiyalarni rivojlantirishdan iborat. Shuni aytish joizki, avvalo lingvistik kompetensiyalarni rivojlantirgan holda nutqiy kompetensiyalarning tarkibiy kompetentlari (tinglab tushunish, so'zlash, o'qish, yozish) o'stirish lozim. Nutqiy kompetensiyani lingvodidaktik asoslanishini, uni o'qitish metodikasini tilshunoslar, pedagoglar, psixologlar va metodist olimlar tomonidan tadqiq qilinib, turlicha ilmiy qarashlar, fikr- mulohazalar bildirilgan. Nutqiy kompetensiyaning birinchi elementi bu tinglab tushunish sanaladi. Bu jarayon o'quvchining go'daklik davridan shakllanib, yillar davomida rivojlanib boradi. Muayyan fan, sohaga oid informatsiyani, ommaviy axborot vositalari orqali o'qib eshittirilgan turli ma'lumotlarni o'zi mustaqil tinglab tushunishi, anglashi, qayta og'zaki gapirib berishi, erkin tahlil qila olishi me'yoriy hujjatlarda belgilangan. Shu o'rinda olim Sh.Yuldashevaning fikricha, "Ma'lumki, tinglab tushunish murakkab nutq faoliyati hisoblanadi. Boisi so'zlovchining radio, magnitofon, televidenie orqali yoki muloqot paytida ifodalagan nutqini tinglovchi tezda qabul qilib, mazmunini tushunib, xotirada saqlab qolishi lozim. Bunday nutqni qaytadan o'qib olish uchun imkon bo'lmaydi. Tinglab tushunish gapirish bilan uzviy bog'liq. Tinglab tushunish ko'nikmasi egallangan bo'lsa, o'quvchida gapirish ko'nikmasi ham yaxshi rivojlanadi"¹. Ommaviy axborot vositalari, ijtimoiy tarmoqlardagi fanni o'rganishga doir turli ma'lumotlarni o'quvchilar tinglaydilar hamda ularda aniq tasavvurlar va tafakkuri rivojlansa, u ma'lumotni qayta tushungan holda gapirib muloqot qila oladilar. So'zlovchining hamma informatsiyasini, poetik matn tinglanganda o'quvchi uni to'liqligicha batafsil anglamasligi mumkin. O'quvchilarda bilimni egallash qobiliyatini takomillashtirish, nazariy ma'lumotni izlab topib o'rganish ko'nikmasini rivoj toptirish va mantiqiy izchil fikrlash malakalari mustahkamlash ulardagi qiziqishlar va izlanishlar olib borish bilan bog'liq. Shundagina o'quvchilar omma oldida, tadbirlarda biron ma'lumotni tinglab tushunishga o'rganib boradilar. Shu bois o'quvchilarda omma oldida, o'qituvchi va o'quvchilar oldida ongli tahlil qilishni, xulosa chiqarishni, aniq gapirishni o'rgatish

¹ Юлдашева Ш.Ш. Давлат тили таълимида ўқувчилар нутқий малакаларини ўстиришнинг илмий-методик асослари. Пед. фан. ном. дисс. –Т.: 2008. –23–24 б.

pedagogik zaruratdir. "O'quvchilar oldiga gapirish, tinglab tushunish, o'qish va yozuv malakalarini hosil qilishdan iborat zamonaviy vazifalar qo'yish, o'quv dasturlari va darsliklar tuzilib ta'lim jarayoniga tatbiq etish nutqiy kompetentsiyalarni rivojlantirishdagi muhim omildir. Bu davrda tinglab tushunishni o'rgatish masalalari ilk bor tadqiq qilindi. Nutq namunalari asosida gapirishni o'rgatish maqsadga muvofiq deb topildi"². O'quvchining ayniqsa, o'z tengqurlari oldida badiiy, ilmiy matnni o'qishi jarayonida hayajonlanish, tortinish bo'lishi tabiiy hol. Nutq namunalari keltirilgan matnlarni o'qitish va yozdirish, matnlarning turlari yuzasidan bilim, ko'nikma va malakalar hosil qilinishi maqsadga muvofiq.

6-sinf "Ona tili" darsligida matn tuzishdan ko'zlangan maqsad va matnning turlari haqida "Bilib oling" rukni ostida nazariy ma'lumot keltirilgan." Matn turli maqsadlar bilan tuziladi. Masalan: muayyan predmet yoki voqea-hodisalar haqida xabar berish, hikoya qilish, ularning ta'rif-tavsifini berish, ya'ni tasvirlash, ularni muhokama qilish, ya'ni mulohaza yuritish. Ana shunga ko'ra, matnlarning quyidagi turlari farqlanadi: 1. Hikoya matni. 2. Tasviriy matn. 3. Muhokama matni"³. 8-sinf o'quvchisi bu yoshdagi o'quvchilar badiiy ko'proq qayta hikoya qilish bilan birga tasvirlash va muhokama qilish ularni juda qiziqtiradi.

Shuningdek, o'zbek tili grammatikasini o'quvchilarga o'rgatish, grammatik bilimlar nutqiy kompetensiyalar rivojiga zamin vazifasini bajaradi.

Shu o'rinda professor J. Jalolovning ilmiy yondashuvi tahsinga sazovor. "Muayyan nutqiy ko'nikmalar hosil qilish aynan grammatikani o'zlashtirish jarayonida yuzaga keladi va asta sekin nutqiy malakaga aylanib boradi, ammo grammatikani o'rgatishda "nazariy qoidalarni quruq yodlatish emas balki o'rganilayotgan nutq namunasi (jumla) dagi muayyan lisoniy unsurlarga o'quvchilar diqqat e'tiborini qaratish" ko'zda tutilishi kerak"⁴. G. Axmedovanning fikricha "so'zni harakatda ko'rish uchun nutqqa nisbatan funksional - semantic tamoyilni tatbiq etish ma'qul, chunki o'quvchi so'z birikmalari va turli xil gaplar namunalari asosida yasama so'zlarni funksional qirralari jihatidan ham semantikasi jihatidan ham amaliy va faol o'zlashtiradi, ya'ni funksional-semantik tamoyil to'lig'cha namoyon bo'ladi"⁵. Nutqiy faoliyatga berilgan izohlardan shu mazmun anglashiladiki, "Nutqiy faoliyat ba'zan statik hodisa (masalan, matn), ba'zan esa harakatdagi hodisa sifatida (masalan, so'zlash va eshitish) talqin qilinadi"⁶.

Tadqiqotchi F. Aminovanning fikricha, "O'quvchilar o'z fikrlarini yozma bayon qilish, matn tuzish, matn ustida ishlash ko'nikmasini egallash natijasida

1. O'zgalarga yozma murojaat qilish va o'z fikrlarini izchil bayon etishga o'rganadilar.
2. Muayyan mavzuda o'z fikrlarini yozma bayon qilishga odatlanadilar.

² Ляховицкий М.В. Методика преподавания иностранных языков. – М.: 1981. – С. 98.

³ Mahmudov N., Nurmonov A., Sobirov A., Nabiyeva D. Ona tili: Umumta'lim maktablarining 6-sinfi uchun. -T.: 2017. -13b

⁴ Жалолов Ж. Чет тили ўқитиш методикаси. -Тошкент: Ўқитувчи, 1996. -37-166 б

⁵ Ахмедова Г. Ўзбек тили дарсларида ўқувчилар нутқини ясама сўзлар билан бойитишнинг методик асослари (таълим рус тилида олиб бориладиган мактаблар мисолида): Пед. фан . ном. ... дис. -Тошкент, 2006. -122 б

⁶ Кубрякова Е.С. Номинативный аспект речевой деятельности. -М.: Наука, 1986. -Б 25

3. Bayon qilingan dalillarni loyihalashtirish va ona tilining nazariy asoslarini o'zlashtirish imkoniyatiga ega bo'ladilar.

4. To'g'ri, xatosiz yozish, mantiqiylik izchillikda fikr bayon qilish malakasini hosil qiladilar.

5. Turli hajmdagi matnlarni to'g'ri yozish hamda tahrir qilishga odatlanadilar.

6. Lug'at bilan ishlash ko'nikmasini egallaydilar"⁷. Lug'at bilan ishlash, xatosiz yozish, mantiqiy fikrlash nutqiy kompetensiyalarni rivojlantirishga yordam beradi.

Demak, o'quvchilarning nutqiy kompetensiyalarini talab darajasida rivojlantirish ularni muloqot qilishiga, munosabat bildirishiga, matn mazmuni bo'yicha mushohada qilishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

References:

1. Аминова Ф.Х. Ўқувчиларни мулоқот матни яратишга ўргатишнинг дидактик асослари. Пед. фан. номз Т: 2007.
2. Ахмедова Г. Ўзбек тили дарсларида ўқувчилар нутқини ясама сўзлар билан бойитишнинг методик асослари (таълим рус тилида олиб бориладиган мактаблар мисолида): Пед. фан. ном. ... дис. - Тошкент, 2006.
3. Жалолов Ж. Чет тили ўқитиш методикаси. - Тошкент: Ўқитувчи, 1996.
4. Кубрякова Е.С. Номинативный аспект речевой деятельности. - М.: Наука, 1986.
O‘smir yoshli bolalar ertaklari. Bu yoshli bolalarda aqli bo‘lishni xohlash bilan birga judayam kuchli bo‘lishni xohlaydilar. Kattalarni suhbatiga qo‘shilgisi, o‘zining fikrlarini bildirgisi keladi. Katta-katta ishlarni amalga oshirgisi keladi. Ko‘proq e‘tibor talab qiladi. Ko‘p narsalarga harakat qilmasdan osongina erishgisi keladi. Shuning uchun ham bu yoshda ertaklarning ahamiyati ham keraklidir. Masalan “Susambil” va “Uch og‘a-ini botirlar” ertagi bolalarni ko‘p eshitishni, shoshmasdan qaror qabul qilishni o‘rgatadi. Qahramonlik qilish oson eamsligini, uning uchun jumboqlarni yechishni bilishi kerakligi, aql bilan ish qilishni o‘rganish kerakligi, tasodifiy holatlarda yeti o‘lchab bir kesib keyin xulosaga kelish kerakligi o‘rgatiladi.

¹ Madayev O., Sobitova T. Xalq og‘zaki poetik ijodi. –Toshkent: “Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati, 2003.

Xulosa qilib aytganda, Ertaklarni yosh xususiyatlariga mos bo'lishi, bolalarni dunyosini ag'dar-to'ntar qilib yubormasligi ham muhimdir. Chunki "Qizil shapkacha" ertagi(rus xalq ertagi)ni oladigan bo'lsak. Ertakning oxiri yaxshilik bilan tugashi uchun bo'rining halok bo'lganini ko'rishimiz mumkin. Bu esa bolalarni o'ylantirib qo'yadi. Avvalgi eshitgan hayvonlar haqidagi ertaklariga havotir bilan qaraydi. Ishonchsizlik paydo bo'ladi. Hayvonlarga nisbatan mehri nafratga aylanadi. Shuning uchun bunday ertaklar ikki xil yakun qilinsa maqsadga muvofiq bo'ladi. Ertak so'ngida bo'rining halok bo'lishi ammo buvi va nabiraning tirik chiqishi sal bo'lsada g'alizlikni oldini oladi. Ammo to'liq emas. Shuning uchun ham bolalarda bunday ertaklarni o'qish tavsiya etilmaydi.

References:

- 1.Madayev O., Sobitova T. Xalq og'zaki poetik ijodi. –Toshkent: "Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati, 2003.
- 2.Imomov K., Mirzayev T., Sarimsoqov B., Safarov O. O'zbek xalq og'zaki poetik ijodi. – Toshkent," O'qituvchi", 1990.
3. Jumaboyev M. "Bolalar adabiyoti va folklor". –T.,O'qituvchi, 1990.
4. Madayev O., Sobitova T. Xalq og'zaki poetik ijodi. –Toshkent: "Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati, 2003.
5. M.Umarova, X.Xamroqulova, R.Tojiboyeva 4- sinf "O'qish" kitobi 2019- y

ПРИМЕНЕНИЕ СТРАХОВАНИЯ В СФЕРЕ БАНКОВСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН

Абдураззокова Зарнигор

Слушатель по направлению:

Управление страховыми компаниями

Банковская финансовая академия Республики Узбекистан

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7672793>

Причины развития направления банковского функционирования в отдельной платформе, защиты и безопасности стало страхование банковских рисков, обеспечивающее гарантийную безопасность. Взаимопонимание между страхователем и страховщиком (то есть между партнерами), основывается из-за рискованной задачей страхования.

Банковское страхование является основой и гарантийной защитой финансового положения этого института. Учитывая недостаточное развитие этого вида страхования в нашей стране можно сказать, мы на пороге прогрессирования деятельности страховых компаний. Как известно, страны третьего мира являются экономически развитыми и в этих странах банковское страхование является неотъемлемой частью банковской деятельности.

Страховая компания считается особым институтом по своей сути, которая способна удовлетворять все эти потребности. Удачная страховая компания дополняет, объединяя полезные коммерческие продажи в единую, сфокусированную на нуждах потребителя услугу.

Банки также могут реализовать услуги накопительного страхования, Тогда банковский институт от лица страховой компании получает денежные средства в свой счет, которые обеспечивает налоговыми льготами и залогом при потребительском кредитовании.

Банковские организации снабжают современными технологиями и коммуникациями потенциальных клиентов, что в свою очередь обеспечивают комфортные условия для совершения операций, тем самым повышая удобство оплаты страховой премии, получения страхового возмещения и контроля отношений со страховой компанией. Тем самым имея существующий опыт для нашей страны недостаточно зарубежного опыта, которые позволили бы развитие банковского страхования. Для дальнейшего развития банковского страхования огромным препятствием являются банки которые располагают огромной базой клиентуры, тем самым став хорошим игроком финансового очага на рынке страхования.

Существующие каналы продажи страховых услуг обходятся страховым компаниям достаточно дорого, что тормозит развитие рынка страхования. На развитие данного сегмента финансового рынка, влияет несовершенное налоговое и экономическое законодательство, а также последствия падений платежеспособности клиентских групп, вследствие экономического кризиса.

References:

1. Закон Республики Узбекистан «Страховая деятельность», 2002.
2. Галаганов А. П. Страховое дело М. Академия, 2009.
3. Динамика основных показателей финансового рынка Узбекистана. Бизнес Вестник Востока, 2016.



CHIZIQLI TENGLAMALAR SISTEMASI

1. Jo`raboyeva Moxinur Azamjon qizi
2. Muhammadqodirova Shodiya No`monjon qizi

1. Andijon Davlat Pedagogika Instituti
Matematika va Informatika yo`nalishi

2-bosqich talabasi

2. Andijon Davlat Pedagogika Instituti
Matematika va Informatika yo`nalishi

2-bosqich talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7676188>

Annotatsiya: Ushbu maqolada chiziqli tenglamalar sistemasi va uning yechilish usullari keltirilgan. Tenglamalarning fanlar bo'yicha aloqaga kirishishi haqida ham so'z boradi.

Kalit so'zlar: Tenglama, chiziqli tenglama, matematika, yagona yechim, koeffitsient.

Tenglama-ikki yoki undan ortiq ifodalarning o'zaro bog'langanini ko'rsatuvchi matematik tenglik. Tenglamalardan matematikaning barcha nazariy va amaliy sohalarida hamda fizika, biologiya va boshqa ijtimoiy fanlarda foydalaniladi.

Chiziqli tenglama- bu ikkala tomoni ham birinchi darajali (no`malum) ko`phadlardan iborat tenglamalar.

Chiziqli tenglamalar (matematikada)- noma`lumlarining faqat birinchi darajalari aniq koeffitsientlar bilan qatnashib, ularning yuqori darajalari, o'zaro ko`paytmalariva murakkab funksiyalari qatnashmagan tenglamalardir.

Bir no`malumli chiziqli tenglamalar $y=ax$ ko`rinishda bo`ladi. Bir necha no`malumli hollarda esa chiziqli tenglamalar bilan ish ko`riladi. Aniqlovchi va matritsa to`g`risidagi ta`limotlar paydo bo`lganidan keyin chiziqli tenglamalar nazariyasi rivojlandi. Chiziqlilik tushunchasi algebraik tenglamalardan matematikaning boshqa sohalaridagi tengliklarga ko`chiriladi. Masalan chiziqli differensial tenglama no`malum funksiya va uning hosilalari chiziqli, ya`ni 1-darajaliga kiradi.

Chiziqli tenglamalarni quyidagi ko`rinishda ifodalash mumkin: $ax+b=0$, bu yerda a - nol bo`lmagan son, b -ozod had.

Bir x o`zgaruvchili chiziqli tenglama deb $ax=b$ (bu yerda a va b haqiqiy sonlar) ko`rinishdagi tenglamaga aytiladi. Bu yerda a -o`zgaruvchi oldidagi koeffitsient, b esa ozod had deyiladi. $Ax=b$ chiziqli tenglama uchun 3 ta hol ro`y berishi mumkin:

- ✓ $a \neq 0$ bu holda tenglama ildizi $x = -\frac{b}{a}$ ga teng;
- ✓ $a=0$ va $b=0$ bu holda tenglama $0 \cdot 0 = 0$ ko`rinishga keladi va har qanday x da to`g`ri bo`ladi;
- ✓ $a=0$ va $b \neq 0$ bu holda tenglama $0 \cdot x = b$ ko`rinishga keladi va ildizga ega bo`lmaydi;

1-misol

$$\begin{cases} 5x+4y=13 & /*3 \end{cases}$$

$$\begin{cases} 3x+5y=13 & /*5 \end{cases}$$

$$\begin{cases} 15x+12y=39 & (1) \end{cases}$$

$$\{15x+15y=65 \quad (2)$$

$$(1)-(2) \rightarrow -3y=-26$$

$$Y=26/3$$

$$5x+96/3=13$$

$$5x=-57/3$$

$$X=-57/15$$

$$\text{Javob: } (-57/15; 26/3)$$

2-misol

$$\{4x-9y=-24$$

$$\{2x-y=2 \quad /*2$$

$$\{4x-9y=-24 \quad (1)$$

$$\{4x-2y=4 \quad (2)$$

$$(1)-(2) \rightarrow -7y=-28$$

$$Y=4$$

$$4x-9=4$$

$$4x=13$$

$$X=13/4$$

$$\text{Javob: } (13/4; 4)$$

References:

1. Matematika ensiklopediyasi
2. O`zbekiston milliy ensiklopediyasi
3. Sh. A. Alimov, O.R. Xolmuhammedov, M.A.Mirzaahmedov 8-sinf ALGEBRA "O`QITUVCHI" NASHRIYOT-MATBAA IJODIY UYI TOSHKENT-2014

INSON SALOMATLIGIDA JISMONIY TARBIYA VA SPORTNING O'RNI.

Baxtiyor Mavlonov

O'zbekiston Respublikasi Jamoat Xavfsizligi Universiteti Jismoniy tayyorgarlik va sport kafedrasi o'qituvchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7678032>

Annotatsiya: Ushbu maqolada barkamol avlodni voyaga etkazish, shu asosda ijtimoiy munosabatlarni sog'lom turmush tarzining ma'naviy-ahloqiy ta'sirini ilmiy asoslash. Sog'lom turmush tarzini qaror toptirish va uning asosiy-madaniy darajasini yanada oshirish yo'llarini hamda aholini keng qatlamini jismoniy tarbiya va sportga jalb qilishni ilmiy yoritish.

Kalit so'zlar: sog'lom avlod, jamiyat, g'oya, adabtatsiya, strategiya.

Sog'lom avlod – sog'lom millat, sog'lom jamiyat va taraqqiyot garovidir. Inson uchun eng katta boylik bu sog'lik hisoblanadi. Jismi va ruhi sog'lom bo'lgan odamgina tom ma'noda o'zini baxtli his eta oladi. Tanu joni og'rib turgan kishiga dunyoning boyligini taqdim etsangizda ta'timaydi, negaki, uning uchun eng katta baxt va boylik salomatligidir. Inson sog'lom bo'lsagina sog'lom fikrlaydi, go'zal orzular qiladi va unga intiladi.

Jumladan davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoev tomonidan o'tgan yilgi Prezident saylovida "Inson qadri uchun", "Davlat – inson uchun" degan g'oyalarni ilgari surgan edi. Ularni hayotga tatbiq etish maqsadida, aholining fikr va takliflari asosida 2022-2026 yillarga mo'ljallangan taraqqiyot strategiyasi ishlab chiqildi va ushbu taraqqiyot strategiyasining 5 yo'nalishi aynan jamiyatda Ma'naviy taraqqiyotni ta'minlash va sohani yangi bosqichga olib chiqish bo'lsa, 4 yo'nalishi Adolatli ijtimoiy siyosat yuritish va inson kapitalini rivojlantirish masalasi qo'yilgan. Bunda 67-68-maqсадlarida jismoniy tarbiya va sport sohasiga ham alohida to'xtalib "Jismoniy tarbiya va sport bilan muntazam shug'ullanadigan aholi sonini 33 foizga etkazish, Olimpiya va Paralimpiya harakatini yanada rivojlantirish" bo'yicha vazifalari ko'rsatib o'tilgan.

Bugun tezlik va o'ta shiddat bilan o'zgarib borayotgan dunyoda globallashuv jarayonlarining ijobiy tomonlari bilan bir qatorda uning salbiy oqibatlarini ham afsuski hayotimizga kirib kelmoqda. Turli kasalliklar, xatarlardan hayotimizni asrash, ruhan sog'lom bo'lish uchun eng avvalo insonlar sport bilan shug'ullanishsa to'g'ri nafas olish jarayoni tiklanadi. Nafas olish inson organizmi uchun muhimdir, chuqur nafas olish esa modda almashinuvi jarayonini faol etakchisi hisoblanadi. Nafas olish oziq moddalarining etakzilishiga yordam beradi hamda vujudimizga quvvat ishlab chiqilishiga ko'maklashadi. Buning uchun "Aerobeka" mashg'ulotlari bilan shug'ullanish maqsadga muvofiq bo'ladi. Bunday mashg'ulot turlariga suzish, tez yugurish, velosiped haydash va boshqa o'pkani faol ishlashi hamda tez-tez nafas olishga majburlovchi har qanday mashq turlari bilan doimiy shug'ullanish kerak. Ammo har qanday mashg'ulotni bajarishdan oldin avval mushaklarni qizitish kerak, bu esa mashg'ulotlardan bezib qolmaslik va mushaklar zo'riqishini olidini olgan bo'ladi. Maxsus tanlangan jismoniy mashqlardan to'g'ri foydalanish, ularni to'g'ri miqdorlash shug'ullanuvchilarning tabiiy, morfologik, funksional rivojlanishini uyg'unlashtiradi.

Bu jarayonlarni tartibga tushirish organizm funksional imkoniyatlarining to'g'ri o'sishini ta'minlaydi. Darhaqiqat, A.Avloniy bobomiz ta'kidlaganidek sog'lom bola sog'lom va ahil oilaning mevasidir. Shuningdek, inson salomatligi uchun eng muhim vosita bu badan tarbiyasi – jismoniy sog'lomlikdir. Dono xalqimiz bejizga "Sog' tanda – sog'lom aql" – deya

ta'kidlamagan. Bu ham isbot talab qilmaydigan haqiqat. Ulug' tabib, qomusiy olim Abu Ali Ibn Sino bobomiz: "O'z vaqtida me'yori bilan badantarbiya qilgan odamga dard yaqin yo'lamaydi. Badantarbiya bilan mashg'ul bo'linsa, hech qanday dori-darmonga zarurat qolmaydi, buning uchun muayyan tartibga rioya qilmoq shart. Badantarbiyani tark etgan odam aksari xarob bo'ladi, zero haraktsiz qolgan a'zolarining quvvati zaiflashadi", – deb inson salomatligi uchun badantarbiyaning qanchalik muhimligini ko'rsatib o'tgan. Sport bilan shug'ullanadigan kishilar nafaqat jismonan, balki, ma'nan sog'lom, irodasi mustahkam, sog'lom fikrlaydigan insonlar sanalishadi. Sport insonning ruhiyatini ham sog'lom qiladi, hayotning har jabhasida faol va harakatchan bo'ladi. Qolaversa, sport bilan muntazam shug'ullanadigan insonlar tartib-intizomga, tozalikka odatlanadi, serharakatligi bois ovqat hazm qilish jarayoni ham unda yaxshi kechadi. Hayot sinovlariga dosh bera oladigan, ruhan kuchli qilib tarbiyalaydi. Shunday ekan har bir kishi o'z salomatligi haqida qayg'urishi, albatta sportning qaysidir turi bilan muntazam shug'allanishi, sportni o'zining hayotiga aylantirmog'i lozim.

Ma'lumki, organizmning funktsional zaxiralariga fiziologik, biokimyoviy, sport texnikasi va ruhiy zaxiralar kiradi. Fiziologik adaptatsiya davomida funktsional tizimlarning faoliyati oshadi va shu bois fiziologik zaxiralar ham o'zgaradi.

Fiziologik adaptatsiya davomida funktsional zaxiralar qo'yidagilarga bo'linishi mumkin:

1. Jismoniy sifatlar (kuch, tezlik va chidamlilik)ni rivojlantiradigan zaxiralar;
2. Har xil quvvatdagi (maksimal, submaksimal katta va o'rtacha) ishlarda ishga tushadigan zaxiralar;
3. Ishga tortilish navbati bo'yicha funktsional zaxiralar uchta guruhga bo'linadi: a) kundalik hayot faoliyatida ishga tushadigan; b) jismoniy mashq qilish va musobaqalarda ishga tortiladigan zaxiralar; v) organizmning yashash uchun kurashida ishga tushadigan zaxiralar.

Adaptatsiyaning biologik zaxiralari hujayra, to'qima, uzv, tizim va yaxlit organizm zaxiralariga bo'linishi mumkin. Hujayra zaxiralari ish bajaradigan strukturalar soni bilan bog'liq organning kuchlanishida ular soni talab etilgan darajada ortadi. Yuqoriroq darajada tuzilgan organizmning turli organ va tizimlarining funktsional zaxiralari bajariladigan ish hajmining birligi uchun sarflanadigan quvvatning kamayishida, ish shiddati va samarasining ortishida namoyon bo'ladi.

Yaxlit organizmning adaptatsiyasi har xil murakkablikdagi harakat vazifalarining bajarilishini ta'minlaydigan yaxlit reaksiyalar ortishi va atrof muhitning ekstremal sharoitlarida organizmning adaptatsiya qilishida sodir bo'ladi.

Qisqacha qilib aytganda, organizmning adaptatsiyasi va uning zaxiralari, organ yoki funktsional sistemalar ishining tinch holatdagiga nisbatan ortish darajasidir. Sportchi organizmining funktsional zaxiralari yuqori quvvatdagi jismoniy ishlarni bajarish paytida u ekstremal (ekologik) sharoitlarga duch kelganda ancha to'liq namoyon bo'ladi. Masalan, sport mashqi bilan shug'ullanishda, musobaqada, yuqori haroratli sharoitda ishlashda, gipoksiyada va hokazo hollarda.

Xulosa o'rnida aytadigan bo'lsak, to'g'ri ovqatlanish, shaxsiy gigiena qoidalariga va tozalikka rioya qilish, muntazam sport bilan shug'ullanish har qanday yurak qon tomir kasalliklari va shunga o'xshash bir qator surunkali kasalliklarni oldi olinadi. Bu esa fanda va tibbiyotda isbotlangan. Shu jumladan har qanday millat yoki avlodning genofondi saqlanib qolishiga olib keladi. Bugunning dolzarb muommosi ham shunda deb hisoblayman. Bu borada doimiy targ'ibot ishlarini olib borish har qanday sog'lom insonning burchi bo'lish kerak.

References:

1. Azizova R.I. “Sport va harakatli o‘yinlarni o‘qitish metodikasi” O‘quv qo‘llanma T.: 2010 yil.
2. Raximqulov K.D. “Milliy harakatli o‘yinlari” O‘quv qo‘llanma T.: 2012 y.
3. Usmonxo‘jayev T.S., Meliyev X.A. va boshqalar. “500 harakatli o‘yinlar” O‘quv qo‘llanma T.: Bekinmashoq-Plyus. 2010 y.
4. Nigmanov B.B, Xo‘jaev F, Raximqulov K.D “Sport o‘yinlari va uni o‘qitish metodikasi” o‘quv qo‘llanma Ilm-Ziyo nashriyoti Toshkent 2011 y.
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi vedio seliktori yig‘ilishi.



МЕТОДИЧЕСКАЯ КОМПЕТЕНТНОСТЬ У УЧИТЕЛЯ АНГЛИЙСКОГО ЯЗЫКА В УСЛОВИЯХ СОВРЕМЕННЫХ ИНФОРМАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ

Джанабаева Адина

докторант НГПИ им. Ажинияза
adina84@mail.ru

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7679488>

Аннотация: В настоящее время проблемы обновления образования находятся в центре общественной жизни, стали предметом горячих дискуссий. За последние годы в социальных и политических слоях сложилось убеждение, что именно эффективная система образования способна стать наиважнейшим фактором формирования гражданского общества в целом. Обучение и всесторонняя подготовка профессионалов нового качества возможны лишь с помощью современных образовательных технологий, основанных на новейших достижениях информационных технологий.

Ключевые слова: эффективность технологий, закрепление, связь, внедрение, накопление, компетентность, методическая компетентность, научный метод, информационная технология.

Изменения, происходящие в современной системе образования, делают необходимостью повышение квалификации и профессионализма учителя, т. е. его профессиональной компетентности. Основная цель современного образования – соответствие актуальным и перспективным потребностям личности, общества и государства, подготовка разносторонне развитой личности гражданина своей страны, способной к социальной адаптации в обществе, началу трудовой деятельности, самообразованию и самосовершенствованию. Исходя из современных требований, можно определить основные пути развития профессиональной компетентности педагога:

1. Работа в методических объединениях, творческих группах;
2. Исследовательская, экспериментальная деятельность;
3. Инновационная деятельность, освоение новых педагогических технологий;
4. Различные формы педагогической поддержки;
5. Активное участие в педагогических конкурсах, мастер-классах, форумах и фестивалях;
6. Обобщение собственного педагогического опыта;
7. Создание портфолио учителя.
8. Использование ИКТ.

Внедрение современных образовательных технологий в процесс преподавания иностранного языка доступно каждому учителю, важно, чтобы изучение материала заинтересовало бы детей, заставило их задуматься о том, что иностранный язык нужен им, если не в будущей профессии, то просто для того, чтобы чувствовать себя образованным человеком. Применение современных образовательных технологий способствует повышению мотивации, интереса к предмету, желанию изучать язык и общаться на нем.

Важно различать ИКТ-грамотность и ИКТ-компетентность учителя.

ИКТ-грамотность – знания о том, что из себя представляет персональный компьютер, программные продукты, каковы их функции и возможности, это умение «нажимать на нужные кнопки», знание о существовании компьютерных сетей (в том числе Интернет). ИКТ-компетентность – не только использование различных информационных инструментов (ИКТ-грамотность), но и эффективное применение их в педагогической деятельности. [1]

Методическая компетенция определяется, как способность обучать иностранному языку с учётом целей (практической, образовательной, воспитательной, развивающей) и условий, а также возраста, уровня грамотности и индивидуальных особенностей учащихся. Авторы трактуют методическую компетенцию как способность, исходя из следующего определения: «способности представляют собой высокий уровень развития общих и специальных знаний, умений, навыков, обеспечивающих успешное выполнение человеком различных видов деятельности» [2]

Вполне вероятно, что некоторые преподаватели могут самостоятельно создавать обучающие материалы для виртуального обучающего пространства. Но, как правило, если речь идёт о выборе виртуальной обучающей среды, об определении адекватной доли веб-присутствия в этом обучающем пространстве, которая соответствует определённой целевой группе, а также составлению содержательно адекватных онлайн-материалов, то над этими задачами работает команда специалистов. При разработке онлайн-курса преподаватель не является автономным, как при внедрении нового учебного курса в аудитории. Тем не менее, ноу-хау преподавателя и его обратная связь как эксперта в этой командной работе будет пользоваться большим спросом. Будучи посредником между студентами и группой технической поддержки, преподаватель должен быть в состоянии найти общий язык с технической поддержкой, программистами, веб-дизайнерами. К важнейшим задачам преподавателя относятся организация коммуникации и кооперации между участниками обучающего онлайн-курса и поддержка обучающихся процессов. Для этого необходим обширный опыт работы с новыми средствами массовой информации и наработанные благодаря такому опыту компетенции. Не в последнюю очередь к медиа компетентности можно отнести способность преподавателя выбрать адекватный стимул для коммуникации в группе, а также подходящее средство для достижения определённой языковой или коммуникативной цели. [3]

Для сформированных профессиональных знаний, умений и навыков в области веб-технологий у преподавателей иностранных языков и комплексного использования всех их дидактических возможностей необходим ряд условий. Преподавателю надо владеть системами навигации в веб-пространстве; обладать твёрдыми навыками поиска необходимого веб-ресурса; понимать условия скачивания веб-ресурса, необходимость скачивания и установки дополнительных приложений; уметь адаптировать веб-ресурс к конкретным образовательным целям; быть способным анализировать и оценивать педагогическую эффективность веб-ресурса.

Таким образом, «внедрение IT способствует достижению основной цели модернизации образования - повышению качества образования, повышению доступности образования, обеспечению гармоничного развития личности то есть, учеников,

ориентированность в информационном пространстве, обучится информационному и коммуникативных возможностей современных технологий и обогатится информационным культурой».

References:

- 1.Хурум, Р.Ю. Использование новых информационных технологий в обучении иностранным языкам на гуманитарных факультетах [Текст] - Майкоп: Изд-во АГУ, 2005. - С.18-23.
- 2.Беляева Т.К. Мониторинг качества организации и проведения педагогической практики по географии / Т. К. Беляева// География в школе. - 2012. - № 4. - С. 56-59.
- 3.Бемаганбетова Г.Г. К вопросу о формировании конфликтной компетентности в младшем школьном возрасте / Г. Г. Бемаганбетова// Начальная школа: плюс до и после. - 2009. - № 4. - С. 83-85.
- 4.Бершадский М. Информационная компетентность / М. Бершадский// Народное образование. - 2009. - № 4. - С. 139-1

ЃЎЗАНИНГ “АНДИЖОН-36” НАВИНИ ПАРВАРИШЛАШДА ТОМЧИЛАТИБ СУЃОРИШ УСУЛИНИ ҚЎЛЛАШ ОРҚАЛИ ЃЎЗАНИ ЎСИБ-РИВОЖЛАНИШИ ВА ПАХТА ТОЛАСИНИНГ ТЕХНОЛОГИК-ХЎЖАЛИК КЎРСАТКИЧЛАРИГА ТАЪСИРИ

Абдулхақов Ферузбек Холидинович

Андижон қишлоқ хўжалиги ва агротехнологиялар институти Гидротехника ва мелиоратив иншоотлари кафедраси мустақил изланувчи

abdulxaqovferuzbek@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7679500>

АННОТАЦИЯ: Мақолада ғўзани сув тежамкор томчилатиб суғориш усули ёрдамида етиштириш технологиясини ғўзани ўсиб-ривожланиши ва пахта толасининг технологик кўрсаткичлари баҳоланган. Дала ва лаборатория тажрибалари 2019-2020 йилларда Андижон вилоятининг оч-тусли бўз механик таркиби ўрта ўғир қумоқ тупроқлари шароитида ўтказилган.

Калит сўзлар: пахта, эгат, суғориш, технология, оч-тусли бўз тупроқ, суғориш меъёри, суғориш муддати ва давомийлиги, коэффицент, сув тақсимоти.

Кириш. Қишлоқ хўжалик экинлари, хусусан, ғўзадан мўл ва сифатли ҳосил олишда, сувни ўз вақти ва меъёрида етарли таъминланишига боғлиқ. Сўнги ўн йиллик дунёда иқлимни глобал исиши таъсирида экологик мувозанатнинг бузилиши натижасида сув танқислиги юзага келмоқда.

Ушбу шароитда сувнинг ҳар бир томчисидан имкон қадар самарали фойдаланиш талаб этилади. Бу талаб, айниқса, сувни энг кўп истеъмол қиладиган соҳа-қишлоқ хўжалиги учун ўта долзарбдир.

Ўзбекистон республикаси президенти Ш.М.Мирзиёевнинг ПҚ-4499 сонли “Қишлоқ хўжалигида сув тежовчи технологияларни жорий этишни рағбатлантириш механизмларини кенгайтириш чора-тадбирлари тўғрисида” тўғрисида 2019 йил 25 октябрь қарори. Ўзбекистон Республикасида “Қишлоқ хўжалигида ер ва сув ресурсларидан самарали фойдаланиш чора-тадбирлари тўғрисида”ги 2019 йил 17 июлдаги ПҚ-5742 сонли қарори, 2022 йил 1 мартдаги ПҚ-144 сонли қарори ҳамда бошқа меъерий-ҳуқуқий ҳужжатларда белгиланган вазифаларни амалга оширишда ушбу тадқиқотлари муайян даражада хизмат қилади.

Шу фармон ва қарорларни амалга оширишда дехқон фермер хўжаликлари ерларида сув ва ер ресурсларидан оқилона фойдаланиш, экинлардан юқори ҳосил етиштириш мақсадида тупроқ унумдорлигини сақлаш ва ошириб бориш, дехқончилик маданиятини янада юксалтириш учун истиқболли тупроқ орасидан суғориш усуллари ишлаб чиқиш, такомиллаштириш ҳамда кенг жорий этиш мақсадида биз 2019-2021 йилларда Андижон вилоятининг оч тусли-бўз, механик таркибига кўра ўрта-оғир қумоқ, сизот сувлари сатҳи 3,5-5,0 метр чуқурликда жойлашган тупроқлар шароитида ғўзанинг Андижон-36 навининг мақбул суғориш тартибларини таъминловчи такомиллашган сув тежамкор томчилатиб суғориш усулини илмий асослаш ҳамда ғўза навининг ўсиши, ривожланиши ва ҳосилдорлигига таъсирини ўрганиб, фермер ва сув хўжалиги ташкилотлари учун илмий-амалий тавсиялар ишлаб чиқилди.

Тажриба ўтказиш услуги. Дала тажрибаси 2019-2021 йиллар давомида Андижон вилояти Избоскан туманининг “Фахриддин замин инвест” фермер хўжалиги даласида илмий тажриба ўтказилди. Тажриба даласининг тупроғи оч тусли-бўз, механик таркибига кўра ўрта-оғир қумоқ, сизот сувлари сатҳи 3,5-5,0 метрда жойлашган.

1-жадвал. Тажриба тизими

№	Суғориш усули	Экиш схемаси	ЧДНСга нисбатан % ҳисобида	Тупроққа чуқур ишлов бериш
Андижо-36				
1	Эгатлаб суғориш (назорат)	60-10x1	70-70-60	
2	Томчилатиб суғориш	60-10x1	70-70-60	
3	Томчилатиб суғориш	60-10x1	70-70-60	Хайдовдан олдин 80 см чуқурликда юмшатиш
4	Томчилатиб суғориш	60-10x1	70-75-60	
5	Томчилатиб суғориш	60-10x1	70-75-60	Хайдовдан олдин 80 см чуқурликда юмшатиш

Тажриба вариантлари бир ярусда 4 қайтариқда жойлаштирилган. Вариант майдони эгат узунлиги 100 м, эни 4,8 м. $100 \times 4,8 \text{ м} = 480 \text{ м}^2$ Бўлакча майдони $480 \text{ м}^2 \times 5 = 2400 \text{ м}^2$ Тажриба даласини умумий майдони. $2400 \text{ м}^2 \times 4 = 9600 \text{ м}^2$ ёки 1,15 га. Ҳар бир бўлакча 8 қатордан иборат бўлиб, 4 таси ҳисобий қаторлар, ҳар икки томонидаги 2 тадан қаторлар ҳимоя қаторлари ҳисобланади. (1-жадвал)

Тажриба натижалари.

Ўзанинг униб чиқган кундан ҳисоблаб 1 июл, август, сентябр ойларида ўзанинг бўйи, симподиал шохлари, шонаси ва кўсак сонлари ҳисобга олинди. 3,6,9-симподиал шохларидан 50 дона чаноқдаги пахта олиниб, ўртача 1 дона чаноқдаги пахта оғирлиги ўрганилди. Пахта толаси технологик ташхисидан ўтказилди. Минг дона чигитни массаси, ундаги ёғ миқдори аниқланди.

Сув тежамкор томчилатиб суғориш усулида суғориш тупроқнинг ҳаво, сув, иссиқлик ва озуқа режимлари, ўзанинг ўсиб-ривожланишига ижобий таъсир этди.

Ўзанинг униб чиқиш ва бошланғич фазаларидаги ривожланиш муддати агроиқлим шароитларига қарамасдан тажриба йилларида унчалик ўзгариш бўлгани йўқ. Тажриба йилларида иқлим шароити ўзгариб турсада, сув тежамкор томчилатиб суғориш усулида суғориш ўзани ўсув-амал даврига ижобий таъсир этди. Ўзанинг бўйи мавсум бошланишида ҳамма вариантларда бир хил бўлди (2-жадвал)

Маълумотлардан кўринадикки эгат олиб суғорилган назорат вариантга нисбатан тупроқ остидан суғорилганда вариантларда чинбарглр сони ўртача 50 та ўсимликда 0,5 донага, шоналарсони 0,8 донага, ҳосил шохлари 0,8 донага ва кўсақлар сони 4,5-5 донага ортганлиги кузатилди.

Ҳар ойнинг биринчи санасида ғўзани ўсиш-ривожланишини ўрганиш мақсадида, фенологик кузатув ишлари ўтказилди. Фенологик кузатув ишлари ҳар бир вариантда 50 та ўсимликда амалга оширилди. (1-жадвал).

Маълумотлардан кўринадикки эгат олиб суғорилган назорат вариантга нисбатан томчилатиб суғорилган яъни хайдовдан олдин чуқур юмшатиш 5-вариантда чинбарглр сони ўртача 50 та ўсимликда 0,5 донага, шоналар сони 0.8 донага, ҳосил шохлари 0,8 донага ва кўсақлар сони 4,5-5,0 донага ортганлиги кузатилди.

Сув тежамкор томчилатиб суғориш технологиясида пахта толасининг сифат кўрсаткичлари. Пахта толасининг сифат кўрсаткичлари Андижон вилояти пахта саноатида таҳлил қилинди ва таҳлил натижаларига кўра, ўрганилаётган томчилатиб суғориш технологиясини ғўзанинг “Андижон-36” навини пахта толасининг сифат кўрсаткичларига таъсирини аниқланди, тадқиқот натижаларига кўра (2018 йил) энг юқори тола чиқиши томчилатиб суғорилганда 5-вариантда яъни хайдовдан олдин чуқур юмшатишганда ғўзани “Андижон-36” навида тола чиқиши 36,8% ни, тола узунлиги 33,6 ммни, 1000 дона чигит оғирлиги 135 граммни, микронейр 4,5 ни, нисбий узилиши 28,2 гс/текс ни ташкил этиб, бу кўрсаткич эгатлаб суғорилган назорат вариантыда тола чиқиши 1,3 % га, тола узунлиги 0,2 мм га, 1000 дона чигит оғирлиги 120 грамм га, микронейр 0,1 га, нисбий узилиши 1,1 гс/текс га камайгани аниқланди.

Хулоса. Юқоридагилардан келиб чиқиб қуйидагича хулоса қилиш мумкин:

- эгат олиб суғорилган назорат вариантга нисбатан сув тежамкор томчилатиб суғорилганда вариантларда чинбарглр сони ўртача 50 та ўсимликда 0.5 донага, шоналарсони 0.8 донага, ҳосил шохлари 0.8 донага ва кўсақлар сони 4.5-5 донага ортганлиги кузатилди.

- пахта толасининг сифат кўрсаткичлари Андижон вилояти пахта саноатида таҳлил қилинди ва таҳлил натижаларига кўра, ўрганилаётган сув тежамкор томчилатиб суғориш технологиясини ғўзанинг “Андижон-36” навини пахта толасининг сифат кўрсаткичларига таъсирини аниқланди, тадқиқот натижаларига кўра (2020 йил) энг юқори тола чиқиши сув тежамкор томчилатиб яни хайдовдан олдин чуқур юмшатиш вариантыда 70-75-60 ЧДНС га нисбатан % суғорилганда экиш схемаси (60x10x1) бўлган ғўзани

References:

1. Ахмедов А. “Сув тежаш технологиялари” // Ўзбекистон қишлоқ хўжалиги журнали, 2008 йил 8-сон. - б. 37.
2. Безбородов Г.А. ва бошқалар–Ғўзани суғоришнинг сувтежовчи технологиялари ва маъдан ўғитлар билан озиқлантиришнинг самарали усуллари”- // ПСУЕАИТИ “Дала экинлари селекцияси, уруғчилиги ва агротехнологияларининг долзарб йўналишлари”

мавзусидаги халқаро илмий-амалий конференцияси материаллари тўплами, 2016 йил. II-қисм. - б. 111-115.

3. Исашев, А., & Мамаджанова, Н. (2018). Тажриба даласининг сувистеъмоли. Agroilm.-Тошкент, (4), 54.

https://scholar.google.com/scholar?cluster=12468061164093245399&hl=ru&as_sdt=2005&scioldt=0,5

4. Allen, R. G. et al., A recommendation on standardized surface resistance for hourly calculation of reference ET₀ by the FAO 56 Penman-Monteith method. Agric. Water Manage., 2006, 81. - p. 1-22.

5. Сурин, В. А., Сабитов, А. У., & Зухриддинов, С. С. (1995). Техника самотечного полива на террасированных склонах. Мелиорация и водное хозяйство, (4), 24-26.

https://scholar.google.com/scholar?cluster=145388531084886305&hl=ru&as_sdt=2005&scioldt=0,5&authuser=2

6. Anvarjon, I., Kholidinovich, A. F., Alijanovna, K. O., & Anvarjonovich, S. I. (2021). The Effect of Drip Irrigation on the Growth and Development of Cotton and Technological and Economic Performance of Cotton Fiber. Design Engineering, 6907-6915.

https://scholar.google.com/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=ty5e3cwAAAAJ&authuser=2&citation_for_view=ty5e3cwAAAAJ:zYLM7Y9cAGgC

7. Абдулхақов, Ф. Х., Хусанов, Д. Д., Саттиев, Ю. Ш., & Закиров, Р. В. Ў. (2020). EFFECTS OF HUMIN PREPARATION FROM PEAT IN GROWING GHAZANI WITH IRRIGATION WATER. Актуальные научные исследования в современном мире, (2-2), 65-71.

8. <https://elibrary.ru/item.asp?id=42781153>

9. Ферузбек Холдинович Абдулхақов, Саидахроп Анваржанович Исашов, & Пўлатжон Иномжон Ўғли Турсунов (2022). СУВТЕЖАМКОР ТОМЧИЛАТИБ СУҒОРИШ УСУЛИНИНГ ҒЎЗАНИ ЎСИБ-РИВОЖЛАНИШИ ВА ПАХТА ТОЛАСИНИНГ ТЕХНОЛОГИКХЎЖАЛИК КЎРСАТКИЧЛАРИГА ТАЪСИРИ. Academic research in educational sciences, 3 (6), 1061-1066.

10. <https://cyberleninka.ru/article/n/suvtezhankor-tomchilatib-su-orish-usulining-zani-sib-rivozhlanishi-va-pahta-tolasining-tehnologikh-zhalik-k-rsatkichlariga-tasiri>

11. Исашов А., Исашов С А., & Абдулхақов Ф.Х. (2021). Сувтежамкор тупроқ орасидан суғориш усулининг ғўзани ўсиб-ривожланиши ва пахта толасининг технологик-хўжалик кўрсаткичларига таъсири. Инновацион технологиялар , (4 (44)), 73-76.

12. <https://cyberleninka.ru/article/n/suvtezhankor-tupro-orasidan-su-orish-usulining-zani-sib-rivozhlanishi-va-pahta-tolasining-tehnologik-h-zhalik-k-rsatkichlariga>

13. Исашов, А., Аманов, Б. Т., Обидов, И. А., & Сидиков, Б. С. (2015). ПРИМЕНЕНИЕ ВНУТРИПОЧВЕННОГО ОРОШЕНИЯ В УСЛОВИЯХ ФЕРГАНСКОЙ ДОЛИНЫ. Российский электронный научный журнал.-2015, 1, 175-179.

14. https://journal.bsau.ru/archive/renj_1_2015.pdf#page=175

TABLE OF CONTENTS | СОДЕРЖАНИЕ

SECTION 1. ARTICLES FROM CENTRAL ASIA

1.	UPBRINGING OF PERFECT HUMAN IN THE WORKS OF A.NAVOI Osmanov Mustafot Tashtanovich	5
2.	ИҚТИСОДИЁТДА РАҚАМЛИ ТЕХНОЛОГИЯЛАРДАН ФОЙДАЛАНИШ Усмонова Мавлудахон Сойибжон қизи, Каримов Отабек Рахимович, Маматов Шохрухбек Муҳаммаджон ўгли	9
3.	БЎЛАЖАК ЖИСМОНИЙ ТАРБИЯ ЎҚИТУВЧИЛАРИНИНГ ТАШКИЛОТЧИЛИК КОМПЕТЕНЦИЯСИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ ХУСУСИЯТЛАРИ Одилов Отабек Норбоевич	12
4.	UZUMDAN SHAROB TAYYORLASH TEXNOLOGIYASI To`laboyeva Orzigul Bahrom qizi, To`rayeva Zuxra Muxtor qizi	15
5.	СОСТОЯНИЕ МИКРОБИОЦЕНОЗА КИШЕЧНИКА У ДЕТЕЙ РАННЕГО ВОЗРАСТА В ЗАВИСИМОСТИ ОТ ХАРАКТЕРА ВСКАРМЛИВАНИЯ С.А.Кенжаева, Н.Ф.Нурматова	18
6.	PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARDA INNOVATSIYALAR Orziqulova Gavharxon Sul-tonmurod qizi, Balbekova Dilnoza Murtaza qizi	20
7.	ҚАРАҚАЛПАҚСТАН РЕСПУБЛИКАСЫ ИШКИ ИСЛЕР УЙЫМЛАРЫНЫҢ КЕҢЕС ДӘЎИРИНДЕГИ РОЛИ Кеңесбаев О.Ж.	22
8.	АХБОРОТ ТЕХНОЛОГИЯЛАРНИНГ О‘ЗБЕКИСТОНДА РИВОЖЛАНИШИ. То‘учийева Асилабону	24
9.	NORMUROD NORQOBILOVNING IJODIGA BIR NAZAR Ahmedova Sarvinov	27
10.	HYPERBOLE AS A TOOL INDEPENDENT OF THE SPEAKER'S INTENTION Rahmatullayeva Mukhlisa	31
11.	NUTQIY KOMPETENSIYANI MATN TURLARI ORQALI RIVOJLANTIRISHDA GRAMMATIK BILIMLARINING O‘RNI Nuriddinova O‘lmasoy Vapayevna	33
12.	ПРИМЕНЕНИЕ ДИДАКТИЧЕСКИХ МЕТОДОВ В ПРЕПОДАВАНИИ УРОКА РУССКОГО ЯЗЫКА Эралиева Муштарийхан	36
13.	ZULMATDA PORLAGAN YULDUZ Murodova Nigina Shuxrat qizi, Alliboyeva Dilrabo Dilshod qizi,	38

	Xakimov G'ayrat Tojiboyevich	
14.	EXPERIMENTAL STUDY OF THE EFFICIENCY OF THE METHOD OF DEVELOPING THE PHYSICAL QUALITIES OF PRESCHOOL CHILDREN Soliev Ilhomjon Sobirjonovich, Khujamberdiyeva Khurshida	41
15.	XALQ OG'ZAKI IJODINING BOSHLANG'ICH SINFLARDAGI TARBIYAVIY AHAMIYATI. N.Olimova	49
16.	ПРИМЕНЕНИЕ СТРАХОВАНИЯ В СФЕРЕ БАНКОВСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН Абдураззокова Зарнигор	52
17.	SHIZIQLI TENGLAMALAR SISTEMASI Jo`raboyeva Moxinur Azamjon qizi, Muhammadqodirova Shodiya No`monjon qizi	54
18.	INSON SALOMATLIGIDA JISMONIY TARBIYA VA SPORTNING O'RNI. Baxtiyor Mavlonov	56
19.	МЕТОДИЧЕСКАЯ КОМПЕТЕНТНОСТЬ У УЧИТЕЛЯ АНГЛИЙСКОГО ЯЗЫКА В УСЛОВИЯХ СОВРЕМЕННЫХ ИНФОРМАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ Джанабаева Адина	59
20.	ЁЎЗАНИНГ “АНДИЖОН-36” НАВИНИ ПАРВАРИШЛАШДА ТОМЧИЛАТИБ СУЎОРИШ УСУЛИНИ ҚЎЛЛАШ ОРҚАЛИ ЁЎЗАНИ ЎСИБ-РИВОЖЛАНИШИ ВА ПАХТА ТОЛАСИНИНГ ТЕХНОЛОГИК-ХЎЖАЛИК КЎРСАТКИЧЛАРИГА ТАЪСИРИ Абдулхақов Ферузбек Холидинович	62